

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Haqberdiyev Dilmurod Abrorovich

dilmurodhaqberdiyev12@gmail.com

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14234022>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi” ekanligini biz respublikada ham amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini ko‘rib turibmiz. Undan tashqari davlatimiz rahbari bu haqda to‘xtalar ekan, jumladan, shunday dedi: “Konstitutsiyaviy islohotni fuqarolarimiz fikri va qo‘llab-quvvatlashi asosida referendum orqali amalga oshirsak, bu tom ma’noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi – haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo‘ladi” deb aytib o‘tgan.

Kalit so‘z: Konstitutsiyasi, moddalar soni 155, madaniyat, ilm-fan, insonning huquq va erkinliklari, xotin-qizlar va yoshlarga.

THE CONSTITUTION IS THE GUARANTEE OF A FREE AND PROSPEROUS LIFE

Abstract. In this article, we see that the Constitution is the guarantee of a free and prosperous life. If we implement it through a referendum on the basis of support, it will literally be an expression of the will of our people - a real people's Constitution.

Key word: Constitution, number of articles 155, number of culture, science, human rights and freedoms, women and youth.

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТИЯ СВОБОДНОЙ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В данной статье мы видим, что «Конституция является залогом свободной и благополучной жизни» в процессе реформ, проводимых в республике. Кроме того, глава нашей страны, говоря об этом, сказал, в том числе, вещи: «Если мы реализуем это через референдум на основе их поддержки, это будет буквально выражением воли нашего народа – настоящей народной Конституцией», – сказал он.

Ключевые слова: Конституция, число статей 155, культура, наука, права и свободы человека, женщины и молодежь.

1. Kirish

Bu yil mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayrami "Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!" degan bosh g‘oya asosida keng nishonlanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 17-oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi

farmoyishi bilan tasdiqlangan Dastur doirasida bu borada tizimli tashkiliy-amaliy, ma'naviy-madaniy, ma'rifiy-huquqiy tadbirlar boshlab yuborildi.[1] Yangi O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohot qanday hayotiy mezonlar hisoblanadi. Bularga quyidagilar kiradi.

Birinchisi:

“2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari yanada takomillashtirildi;

Ikkinchisi:

“2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida izchil konstitutsiyaviy islohot amalga oshirildi;

Uchinchisi:

“O'zbekiston – 2030” strategiyasini hayotga tatbiq etishda yangilangan Asosiy qonunimizning to'g'ridan to'g'ri ijrosini ta'minlashga qaratilgan ta'sirchan choralar ko'rilmogda.[2]

Shunday ekan erkinlik, adolat va farovonlik konstitutsiyaning muhim prinsiplarini tashkil etadi. Shu ma'noda aytish joizki, yuqorida keltirib o'tilgan demokratik prinsiplarni o'zida mujassam etgan mo'tabar Qomus — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun - mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida beqiyos siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga molik tarixiy kun bo'lib qoldi.



2. Konstitusiyamizning yaratilishi tarixi

Birinchi Prezidentimiz Konstitutsiyaviy komissiya ish boshlashi bilan mamlakatimizning o'ziga xos jihatlari va xususiyatini munosib ravishda aks ettiradigan, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan, jahon tajribasini, demokratiya va eng rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi erishgan yutuqlarni inobatga oladigan Asosiy Qonun loyihasini tayyorlashga bevosita rahbarlik qildi. Yaqin o'tmishning bu voqealarini eslash va eslatishdan muddao esa yangi Konstitutsiyamizni yaratish yo'lidagi kurashlar mustaqillik uchun kurashning uzviy, ajralmas qismi ekanligini e'tirof etishdan iborat. Zero, biz o'z istiqlolimizni qanday qiyinchiliklar bilan, qanday sinov va suronli kurashlar bilan qo'lga kiritgan bo'lsak, O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish yo'lida ham xuddi shunday murakkab sinovlarni boshdan kechirildi. Shundan keyin konstitutsiyaviy komissiya bajarilgan ishni ma'qulladi va 1992 yil 8 sentabrda Konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilishga qaror qildi. Ushbu yig'ilishda loyihani oxiriga yetkazish va tahrir qilish uchun ishchi guruh tuzildi. Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi 1992 yil 26 sentabr kuni tayyor bo'ldi va shu kuni matbuotda chop etildi. Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni 155 taga, oshdi. Ya'ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi.[3]

Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquq va erkinliklar to'g'risida modda.

19-modda.

O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

21-modda.

Har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning rozilgisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas.

Inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin.

27-modda.

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan

holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

“Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!” degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o'tilganligini ochib beradi. Undan tashqari mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini ta'minlash, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, oila, onalik, bolalik va otalikni himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatini keng targ'ib qilish tushiniladi.[4]



Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garov ekanligini biz respublikada ham amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini ko'rob turibmiz. Undan tashqari barcha islohotlar va amalga oshirilayotgan chora – tadbirlar “Inson qadri uchun” kabi tamoyillar asosida olib borilmoqda.

“Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!” degan bosh g'oya asosida keng nishonlanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 17-oktyabrda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi farmoyishi bilan tasdiqlangan Dastur doirasida bu borada tizimli tashkiliy-amaliy,

ma'naviy-madaniy, ma'rifiy-huquqiy tadbirlar boshlab yuborildi.[5]

O'zbekiston Prezidenti tomonidan Konstitutsiyaviy komissiya faoliyatining uchta bosqichi aniq belgilab berildi. Shu asosda Konstitutsiyaviy komissiya:

Birinchidan:

Konstitutsiyani o'zgartirish bo'yicha takliflarni qabul qilish, jamlash va tahlil qilishni tashkillashtirish;

Ikkinchidan:

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan ishlab chiqilgan yangilangan Konstitutsiya loyihasini keng jamoatchilik ishtirokida ko'rib chiqish va umumxalq muhokamasini o'tkazish;

Uchinchidan:

Umumxalq muhokamasi natijasida maromiga yetkazilgan Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilish bosqichlari doirasida izchil faoliyat olib bordi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligiga oid tarixiy ahamiyatga ega norma belgilab qo'yildi. Ijtimoiy adolat va hamjihatlik tamoyillari joriy qilindi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun butunlay yangi mexanizmlar mustahkamlandi.



Biz bugun, demokratik o'zgarishlar davrida mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy hayotida bevosita va faol ishtirok etish istagida bo'lgan fuqarolarimizning salohiyati to'la namoyon bo'lishini ta'minlashimiz lozim. Bu borada ko'ppartiyaviylik tizimi, partiyalararo bahs-munozara, fikrlar va dasturlar o'rtasidagi raqobatni jadal rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Undan tashqari Ijtimoiy

adolat – bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir. Bu – ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalardagi imkoniyatlar tengligidir. Bu – kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari bo'yicha ko'tarilib borishdagi imkoniyatlar tengligidir. Eng muhimi, bu – keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rlikdir. Harakatlar strategiyasi ijrosi doirasida shu yilning o'zida 20 dan ortiq qonun va 700 dan ziyod qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Biz bu borada ko'pgina qonunlar xalqimizga ma'qul emasligini, ular el-yurtimiz manfaati uchun ishlashi kerakligini hisobga olgan holda shunday yo'l tutdik. Bu ishlarni kelgusida albatta davom ettiramiz. Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili, deb e'lon qilingan 2017-yilda "Inson manfaatlarini hamma narsadan ulug'" degan g'oya asosida katta ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar Konstitutsiyamizning asosiy tamoyillarini ro'yobga chiqarishda yana bir ulkan qadam bo'ldi. Davlat rahbari xuddi shu uchrashuvda inson qadrini konstitutsiyaviy mustahkamlashning to'qqizta asosiy yo'nalishi bo'yicha Konstitutsiyaga kiritiladigan aniq takliflarini jamoatchilik e'tiboriga havola etdi. Shu muhim taklif va tashabbuslarning barchasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o'z aksini topdi. Xususan, O'zbekiston Prezidenti inson – davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo'lishi lozim, degan tashabbus bilan chiqdi. Natijada endilikda inson qadrini yuksaltirish haqiqatda davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasiga aylandi. Undan so'ng asosiy qonunda "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan g'oya mustahkamlandi. Binobarin, ijtimoiy davlat – ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modeli tuzildi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday qonun avvalo uni bilish va hurmat qilish, unga so'zsiz rioya etish orqali tom ma'noda qonuniylik hamda amaliylik kasb etadi. Konstitutsiyaning normalarini ham aynan ana shu ongli itoatkorlik harakatga keltiradi. Bu, avvalambor, mansabdor shaxslarning ham, fuqarolarning ham Konstitutsiyani bilishlarini qat'iy talab etadi. Yuksak huquqiy madaniyatsiz Konstitutsiyaning boy salohiyatini to'liq amalga oshirish mumkin emas. Ammo, Konstitutsiyani bilishning o'zi bilan ham kifoyalanib bo'lmaydi. Shu bois jamiyatda konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash bilan bog'liq xayrli an'ana Asosiy qonunimizda belgilangan demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari atrofida fuqarolarni jipslashtirishga xizmat qilishini ta'kidlash o'rinlidir. Bu borada davlat rahbarining Konstitutsiya kunini nishonlashga oid farmoyishlarni tasdiqlash amaliyoti alohida ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T ., “O‘zbekiston”, 2023y.
2. https://constitution.uz/oz/pages/mustahkam_huquqiy_poydevor
3. <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. <https://agmk.uz/oz/freedom-and-law/konstitutsiya-erkin-va-farovon-hayot-garovi>